# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

**№7**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2025**
IYUL



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*

Google Scholar
OPEN ACCESS
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
Academic Resource Index ResearchBib
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CYBERLENINKA
OpenAIRE
ROAD
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
BASE
Crossref
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU




РЭУ.РФ РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

*Elektron nashr,*
*190 sahifa, iyul, 2025-yil.*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**muhandislik**

**& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta’minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta’minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug‘lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To‘qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo‘l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta’minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma’lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo‘yicha “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali ro‘yxatga kiritilgan.

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

Yashil ish o‘rinlari va ekologik ta’lim: o‘zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar ..... 12
**Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona**

Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta’siri ..... 16
**Babanazarova Nilufar Xolmatovna**

Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda budjet mablag‘laridan foydalanish mexanizmining o‘rni va ahamiyati ..... 23
**Rustamova Gulmira Aliqulovna**

Dasturiy mahsulotlar logistikasi ..... 30
**Uzaqov Ortik Shaymardanovich**

Banklarda moliyaviy barqarorligini ta’minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati ..... 35
**Djalilov G‘ayrat Qaxramanovich**

Oliy ta’lim muassasalarini “yashil universitet” tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik misolida) ..... 39
**Rahmatov Shuxrat Axatovich**

Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash ..... 43
**Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich**

Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации ..... 47
**Явкачев Шохзод Зайниддин углы**

Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o‘rni ..... 54
**Otaboyev Axmed Maxsudbek o‘g‘li**

Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag‘batlashtirish ..... 61
**Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich**

Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования ..... 65
**Гулшат Карлибаева**

Banklarda moliyaviy barqarorligini ta’minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati ..... 70
**Djalilov G‘ayrat Qaxramanovich**

O‘zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta’sir o‘tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memorlarning yetishmasligi ..... 74
**Nabiyev Hamidjon Mirzo o‘g‘li**

General Concept and Principles of Quality Management System ..... 78
**Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich**

Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish ..... 84
**Absamatov Anvar Ergashovich**

Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений ..... 94
**Uraqov Shokir Ulashovich**

Korxona faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli ..... 100
**Abdurasulov Xumoyun Jalil o‘g‘li, Axmedov Xasan Ruzibayevich**

Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish ..... 107
**Abdullayev Abdurauf**

Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish ..... 112
**Sheraliyev Xayrulla Karimovich**

O‘zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta’siri ..... 116
**Samarqand davlat uiversiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich**

Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri ........ 120
**Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li**

Xalqaro moliya-kredit instutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi ........ 126
**Qosimov Bobur Sobirovich**

Jahonda moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni ........ 131
**Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich**

Iqtisodiyotning real sektor subyektlarining faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi ........ 136
**Mahmudov Nurali Komilovich**

O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri ........ 140
**Sanakulova Iroda, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich**

Sho'r suvni chuchuklashtirish uchun absorber sifatida foydalanilgan quyosh elementlari tuzilmasining tajriba sinov tahlillar ........ 144
**Tursunov Muxamad Nishanovich, Sabirov Xabibullo, Axtamov Tohir Zuxriddinovich, Abriyev Shaxzod Akbar o'g'li, Bobomuratov Sardor Abdurasul o'g'li**

Развитие банков в системе цифровых финансовых услуг в Республике Узбекистан ........ 151
**Даденова Гульхан Кенесбаевна**

Внедрение экологических стандартов в транспортной системе: проблемы и перспективы ........ 156
**Абдурахманова М.Т.**

Elektron o'quv kontenti orqali mustaqil ta'lim va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish ........ 162
**Ahunova Tamannoxon Zokir qizi**

Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruv strategiyasini yangilash: O'zbekiston modeli ........ 167
**Tojialiyev Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li**

Jismoniy shaxslar uchun aksiyalar bozoriga kirish strategiyalari va investitsiya imkoniyatlari: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili ........ 171
**O'raqov Bekzodbek Abdurayxon o'g'li**

Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (mhxs) joriy etishning nazariy asoslari ........ 176
**Uralov Temur Boxodir O'g'li**

Nodavlat notijorat tashkilotlarini mablag'larini shakllanishi va nazorat qilinishi ........ 181
**Xolbekov Ulug'bek Toshpulat o'g'li**

Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirishning strategik boshqaruv mexanizmlari ........ 185
**Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# OLIY TA'LIM MUASSASALARINING XALQARO REYTING KO'RSATKICHLARINI OSHIRISHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEXANIZMLARI

**Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi –**
Yangi O'zbekiston universiteti
E-mail: mukhlisamamajonova0080@gmail.com
ORCID: 0009-0009-2320-2880

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirish uchun strategik boshqaruv mexanizmlarini tahlil qiladi. Times Higher Education (THE) va QS World University Rankings metodologiyalarining qiyosiy tahlili asosida yosh universitetlar uchun optimal rivojlanish strategiyalari aniqlandi. THE metodologiyasi tadqiqot ko'rsatkichlariga 59%, QS esa obro' ko'rsatkichlariga 45% qiymat berishi aniqlandi. THE tizimidagi xarid qobiliyati pariteti (PPP) tuzatishlari rivojlanayotgan mamlakatlar universitetlari uchun muhim afzallik yaratishi ko'rsatildi. Muvaffaqiyatli yosh universitetlar tajribasi tahlili asosida uch bosqichli strategik rivojlanish modeli taklif etildi. O'zbekistonning 2030-yilgacha 10 ta universitetni xalqaro reytinglar TOP-1000 taligiga kiritish milliy maqsadiga erishish uchun kompleks yondashuv zarur ekanligi asoslandi.

Kalit so'zlar: xalqaro reyting, THE, QS, strategik boshqaruv, oliy ta'lim, metodologik tahlil, yosh universitetlar.

Abstract: This study analyzes strategic management mechanisms aimed at improving the international ranking indicators of higher education institutions. Based on a comparative analysis of the methodologies of Times Higher Education (THE) and QS World University Rankings, optimal development strategies for young universities have been identified. It was established that the THE methodology allocates 59% weight to research indicators, whereas QS assigns 45% to reputation indicators. It was demonstrated that purchasing power parity (PPP) adjustments within the THE system provide significant advantages for universities in developing countries. Based on the analysis of the experiences of successful young universities, a three-stage strategic development model has been proposed. The necessity of a comprehensive approach to achieve Uzbekistan's national goal of having 10 universities ranked within the top 1000 international rankings by 2030 has been substantiated.

Keywords: international ranking, THE, QS, strategic management, higher education, methodological analysis, young universities.

Аннотация: Настоящее исследование посвящено анализу стратегических механизмов управления, направленных на повышение показателей вузов в международных рейтингах. На основе сравнительного анализа методологий Times Higher Education (THE) и QS World University Rankings определены оптимальные стратегии развития для молодых университетов. Установлено, что методология THE придаёт 59% веса исследовательским показателям, тогда как QS — 45% показателям репутации. Показано, что поправки на паритет покупательской способности (PPP) в системе THE создают важные преимущества для университетов развивающихся стран. На основе анализа опыта успешных молодых университетов предложена трёхэтапная модель стратегического развития. Обоснована необходимость комплексного подхода для достижения национальной цели Узбекистана — включения 10 университетов страны в число лучших 1000 мировых вузов к 2030 году.

Ключевые слова: международный рейтинг, THE, QS, стратегическое управление, высшее образование, методологический анализ, молодые университеты.

## KIRISH

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida xalqaro reytinglar nafaqat universitetlarning global maydondagi raqobatbardoshligini belgilaydi, balki ularning moliyaviy barqarorligi, xalqaro hamkorlik imkoniyatlari va ilmiy salohiyatini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash zamonaviy universitet uchun strategik rivojlanishning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bois, bugungi kunda ko'plab davlatlar milliy oliy ta'lim siyosatini reyting ko'rsatkichlariga moslashtirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmonida "kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasini prestigli xalqaro reyting tashkilotlari (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) tomonidan e'lon qilinadigan reytinglarning birinchi 1000 taligiga kiritish" vazifasi belgilangan [1]. Ushbu maqsadga erishish bevosita chuqur ilmiy tahlilga asoslangan samarali strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishni talab etadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro universitet reytinglari bo‘yicha ilk yirik tashabbus 2003-yilda Shanghai Jiao Tong universiteti tomonidan Academic Ranking of World Universities (ARWU) orqali boshlangan bo‘lsa-da, bugungi kunda THE va QS reytinglari eng ko‘p e’tirof etilgan global reyting tizimlari sifatida ajralib turadi [4]. Salmi “jahon darajasidagi universitet” kontseptsiyasini chuqurlashtirib, bu maqomga erishishda uch asosiy mezonni – yetakchi professor-o‘qituvchilarni jalb qilish, boy ilmiy-infratuzilmani yaratish va samarali boshqaruv tizimini joriy etishni ta’kidlagan [5].

Altbach va Knight reytinglarning xalqaro talabalik mobiliteti va universitetlararo raqobatni keskin oshirganini qayd etgan [6]. Marginson va Van der Wende esa reytinglarni global axborot maydonida “ruxsat etilgan tartib o‘lchovi” sifatida baholab, ularning shaffoflik va jamoatchilik oldidagi javobgarlikni oshirishdagi rolini tahlil qilgan [7].

Shin va Toutkoushian THE va QS reytinglaridagi farqlarni o‘rgangan holda, obro‘ ko‘rsatkichlarining baholashdagi og‘irligi yosh universitetlar uchun qanday to‘siq bo‘lishini ko‘rsatib berdi [8]. Shu bilan birga, Saisana va Saltelli reyting metodologiyalaridagi statistik xatoliklar va og‘irlik koeffitsientlarini tanlashdagi subyektivlik tufayli ba’zi ko‘rsatkichlarning muhimligi ortiqcha baholanishi mumkinligini ta’kidlaydi [9].

O‘zbekiston kontekstida Umarova milliy oliy ta’lim tizimining reytinglardagi o‘rni va ko‘rsatkichlarini oshirish bo‘yicha qator amaliy tavsiyalar bergan [10]. Bu tadqiqotlar mazkur maqola uchun nazariy asos vazifasini o‘taydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi sifatli va qiyosiy tahlil yondashuviga asoslangan bo‘lib, ikki asosiy bosqichni qamrab oldi. Birinchidan, Times Higher Education (THE) va QS World University Rankings reyting tizimlarining rasmiy metodologik hujjatlari (2023–2025-yilgi versiyalar) chuqur o‘rganildi va ularning asosiy ko‘rsatkichlari va ularga ajratiladigan og‘irliklari qiyosiy tahlil qilindi [11][12].

Ikkinchidan, tanlangan uchta muvaffaqiyatli yosh universitet – Paris-Saclay, PSL Paris Sciences et Lettres va Nanyang Texnologiya Universiteti (NTU) – misol sifatida o‘rganildi. Case study tahlil metodi orqali ularning rivojlanish strategiyasi, davlat qo‘llab-quvvatlovi va xalqaro hamkorlik amaliyotlari tahlil qilindi. Shu bilan birga, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimining milliy konteksti Prezident farmonlari va amaldagi strategik hujjatlar asosida o‘rganildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

1-jadvalda keltirilganidek, THE va QS metodologiyalari universitet sifatini baholashda turli yondashuvlardan foydalanadi (1-jadval).

1-jadval:THE va QS metodologiyalarida asosiy ko‘rsatkichlar qiymati.

| Ko‘rsatkich | THE (%) | QS (%) |
|---|---|---|
| Tadqiqot sifati/iqtiboslar | 30 | 20 |
| Tadqiqot muhiti | 29 | - |
| Ta’lim muhiti | 30 | 20 |
| Akademik obro‘ | 15* | 30 |
| Ish beruvchilar obro‘si | - | 15 |
| Xalqaro ko‘rsatkichlar | 7.5 | 15 |
| Sanoat daromadi | 2.5 | - |

Qiyosiy tahlil natijalari THE va QS reyting metodologiyalari yosh universitetlar uchun qanday imkoniyat va cheklovlar yaratishini aniq ko‘rsatadi. THE metodologiyasi tadqiqot muhiti va sifati ko‘rsatkichlariga katta ahamiyat qaratadi (umumiy og‘irlik 59%), bu esa yosh, faol ilmiy rivojlanayotgan universitetlarga qo‘shimcha imkoniyat yaratadi. Aksincha, QS tizimi obro‘ ko‘rsatkichlariga katta og‘irlik beradi (45%), bu yosh universitetlar uchun qisqa muddatda katta to‘siq bo‘lishi mumkin.

PPP koeffitsiyenti va uning ahamiyati

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, PPP koeffitsienti THE tizimida rivojlanayotgan davlatlar universitetlari uchun muhim afzallik yaratadi. Bu, ayniqsa, ilmiy grantlar va tadqiqot xarajatlari xalqaro miqyosda teng raqobatlashish imkoniyatini kengaytiradi.

Misol: Agar O‘zbekistonda 1 dollar ekvivalenti Buyuk Britaniyadagiga nisbatan 2.3 barobar ko‘p xizmat-mahsulot sotib olish imkonini bersa, tadqiqot uchun sarflangan mablag’lar THE reytingida 2.3 koeffitsient bilan hisoblanadi. Bu tadqiqot daromadi (5.5%) va sanoat daromadi (2.5%) ko‘rsatkichlariga ta’sir qiladi.

Muvaffaqiyatli yosh universitetlar tajribasi

Uch yosh universitetning tahlili umumiy muvaffaqiyat omillarini aniqlash imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval: Muvaffaqiyatli yosh universitetlarning taqqosiy tahlili

| Universitet | Tashkil etilgan | THE reyting (2024) | Asosiy strategiya |
|---|---|---|---|
| Paris-Saclay | 2019 | 58 | 14 muassasa birlashishi, kritik massa |
| PSL Paris | 2010 | 41 | Federatsiya modeli, elita yondashuv |
| NTU Singapur | 1991 | 32 | Davlat investitsiyalari, xalqaro fakultet |

Umumiy xususiyatlar:

- Kuchli davlat qo‘llab-quvvatlashi
- Minimal 30% xalqaro professor-o‘qituvchilar
- 3-5 mukammallik sohasiga fokuslanish
- Yiliga minimal 1000 Scopus nashri (THE ko‘rinishi uchun)

Muvaffaqiyatli yosh universitetlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, ular davlat tomonidan yirik investitsiya, xalqaro professor-o‘qituvchilar ulushining yuqoriligi va yetakchi ilmiy yo‘nalishlarga fokuslash orqali qisqa muddatda reytinglarda barqaror o‘sishga erishgan.

Strategik rivojlanish modeli

Tahlil asosida quyidagi uch bosqichli strategik rivojlanish modelini amaliyotga tatbiq etish mumkin:

1-bosqich (1-3 yil): Institutsional salohiyat qurish

- Tadqiqot infratuzilmasini rivojlantirish
- Xalqaro hamkorlik mexanizmlarini o‘rnatish
- Ma’lumotlar boshqaruvi tizimini yaratish

2-bosqich (4-6 yil): Tezkor o‘sish

- Nashriyot faoliyatini keskin oshirish
- Xalqaro grantlar va loyihalarni jalb qilish
- Brend va obro‘ni rivojlantirish

3-bosqich (7-10 yil): Barqaror e’tirof

- Reytinglarga kirish va pozitsiyalarni mustahkamlash
- Regional liderlikni o‘rnatish
- Moliyaviy barqarorlikka erishish

THE va QS metodologiyalarining tahlili yosh universitetlar uchun turli imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi. THE metodologiyasining afzalliklari:

PPP tuzatishlari: Rivojlanayotgan mamlakatlar universitetlari uchun muhim afzallik. Bu mexanizm real xarajatlarni xalqaro ekvivalentga aylantiradi.

Kamroq obro‘ bog’liqligi: THE da 18% vs QS da 45%. Yosh universitetlar uchun obro‘ ko‘rsatkichlarini qisqa muddatda oshirish qiyin.

Ko‘p qirrali baholash: THE ning 18 ta ko‘rsatkichi turli yo‘llardan rivojlanish imkonini beradi.

Young University Rankings: 50 yoshgacha universitetlar uchun alohida reyting mavjudligi.

Shu bilan birga, QS reytingi ham o‘z afzalliklariga ega: soddaroq metodologiya, keng geografik qamrov, ish beruvchilar fikrinin hisobga olinishi.

DiMaggio va Powell nazariyasiga ko‘ra, institutsional izomorfizm universitetlarni o‘xshash strategiyalarga undaydi [13]. Ammo kontekstga moslashgan yondashuvlar muhim. O‘zbekiston universitetlari uchun milliy xususiyatlarni hisobga olgan strategiya zarur.

Amaliy tavsiyalar

Institutsional darajada

Reyting ofisini tashkil etish: THE va QS ma’lumotlarini to‘plash, tahlil qilish va taqdim etish uchun maxsus bo‘lim.

Scopus/Web of Science profilini boshqarish: Barcha nashrlarning to‘g’ri indekslanishini ta’minlash.

Xalqaro hamkorlik strategiyasi: Obro‘ va resurs transferi uchun TOP universitetlar bilan aloqalar.

Tadqiqot sifatini oshirish: Grant yozish, yuqori impakt-faktorli jurnallarda nashr qilish.

Milliy darajada

Klaster yondashuvi: 3-4 potentsial universitetga resurslarni jamlash.

Moliyalashtirish mexanizmlari: Reyting ko‘rsatkichlariga bog’liq moliyalashtirish.

Xalqaro ekspertiza: Muhim qarorlar va loyihalar uchun xalqaro ekspertlar jalb etish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirish — uzoq muddatli, murakkab va izchil monitoringni talab qiluvchi strategik jarayon. THE va QS metodologiyalarining chuqur qiyosiy tahlili yosh universitetlar uchun ayniqsa THE tizimi ko'proq imkoniyat berishini ko'rsatdi: PPP tuzatishlari, ko'rsatkichlarning ko'p qirraligi va obro'ga nisbatan kam bog'liqligi raqobatbardosh bo'lishga yordam beradi. Muvaffaqiyatli yosh universitetlar tajribasi asosida ishlab chiqilgan uch bosqichli rivojlanish modeli O'zbekiston oliy ta'limi uchun real amaliy yechim sifatida xizmat qilishi mumkin. Kelgusida tadqiqot sifati va xalqaro hamkorlikni oshirish, ilmiy nashrlar soni va sifati ustida tizimli ish olib borish, shuningdek, milliy darajadagi klasterlashgan qo'llab-quvvatlash strategiyasi O'zbekistonning 2030-yilgacha belgilangan TOP-1000 maqsadiga yetishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Eng muhimi, reytinglar mustaqil maqsad emas, balki oliy ta'lim sifatini oshirish, ilmiy salohiyatni kuchaytirish va xalqaro akademik integratsiyani jadallashtirish vositasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida". PF-5847-son, 2019-yil 8-oktabr.
2. Hazelkorn, E. (2015). Rankings and the Reshaping of Higher Education: The Battle for World-Class Excellence (2nd ed.). London: Palgrave Macmillan.
3. Marginson, S. (2014). University Rankings and Social Science. European Journal of Education, 49(1), 45-59.
4. Liu, N. C., & Cheng, Y. (2005). The Academic Ranking of World Universities. Higher Education in Europe, 30(2), 127-136.
5. Salmi, J. (2009). The Challenge of Establishing World-Class Universities. Washington, DC: The World Bank.
6. Liu, N. C. (2009). The Story of Academic Rankings. International Higher Education, 54, 2-3.
7. Shin, J. C., & Toutkoushian, R. K. (2011). The Past, Present, and Future of University Rankings. In University Rankings: Theoretical Basis, Methodology and Impacts on Global Higher Education (pp. 1-16). Dordrecht: Springer.
8. Rauhvargers, A. (2013). Global University Rankings and Their Impact - Report II. Brussels: European University Association.
9. van Vught, F., & Ziegele, F. (Eds.). (2012). Multidimensional Ranking: The Design and Development of U-Multirank. Dordrecht: Springer.
10. Umarova, X. U. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirishning strategik boshqaruv mexanizmlari. PhD dissertatsiyasi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.
11. Times Higher Education. (2025). World University Rankings 2025: methodology. https://www.timeshighereducation.com/world-university-rankings/methodology
12. QS Quacquarelli Symonds. (2025). QS World University Rankings – Methodology. https://www.topuniversities.com/qs-world-university-rankings/methodology
13. DiMaggio, P. J., & Powell, W. W. (1983). The Iron Cage Revisited: Institutional Isomorphism and Collective Rationality in Organizational Fields. American Sociological Review, 48(2), 147-160.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2025. № 7**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod tumani 15-mavze 19-uy**